

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

**BUXORO TURIZMI XIZMAT KO`RSATISH SOHASIDAGI
IJOBIV O`ZGARISHLAR
(2000-2016 yillar misolida)**

Murodov Halim Salimovich

Osiyo xalqaro universiteti
“Tarix va filologiya” kafedrasi dotsenti, PhD
murodovhalim645@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston turizmining bir qismi bo'lgan Buxoro turizmida turistik tashkilotlar turoperator va turagentlarning faoliyati, jumladan turistik mahsulotni yaratish, reklama qilish va amalga oshirish uchun yuridik shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati sifatida o'rGANilib, ushbu sohaning 2000-2016 yillardagi faoliyati atroficha yoritilgan. Hunarmand usta tadbirkorlarning milliy hunarmandchilikning barcha turlari bo'yicha suvenir do`konlari xizmat ko`rsatayotganligi, natijada xizmat ko`rsatish hamda servis sohasining rivojlanishi bilan yangi ish o`rinlari yaratish imkoniyatlari o'sib borayotganligi borasida mulohazalar bildirilgan. Turistlarga xalqaro standartlar darajasida xizmat ko`rsatuvchi turoperatorlar, turagentlar hamda ekskursiya yetakchilari soning oshishi ular faoliyatida ijobiyl o`zgarishlar yuz bergenligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro turizm, mehmonxona, “Labi Hovuz”, “Salom”, “Islomiddin”, “Arsham” “Klassik-tur”, “East Line Tour”, “Aziya in Focus”, “Malika- Sayyoh”, “Elen Oazis”, “Mir Arab travel” “Adras” “Ko'kaldosh”, “Dirk Xal`bfell”.

Buxoro turizmi rivojlanishida turistik tashkilotlar turoperator va turagentlarning faoliyati markaziy o'rinni egallaydi. “Turizm to`grisida”gi qonunning 20 moddasiga ko`ra, turistik mahsulotni yaratish, reklama qilish va amalga oshirish uchun yuridik shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati turoperatorlik faoliyatidir. Shuningdek, turistik mahsulotni targ'ib etish va realizatsiya qilish yuzasidan yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati turagentlik faoliyatidir. Turoperatorlar va turagentlar turistik faoliyatni litsenziya olib

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

borishi belgilangan[1]. Buxoro turizmi sohasida 2000 yilda 12 ta turistik firma faoliyat yuritgan. 2000 yilda eng ko`p sayyoohlarga xizmat ko`rsatgan korxona “Hamkorlik” 2308 kishiga va “Islomiddin” turistik firma 1573 kishiga, mehmonxonalardan “Labi Hovuz” 959 kishiga shu jumladan 677 xorijiy sayyoohga xizmat ko`rsatgan[2].

2010 yilda 12 ta turoperator firmalari: 1. “Salom” 2. “Islomiddin” 3. “Arsham” 4. “Klassik-tur” 5. “East Line Tour” 6. “Aziya in Focus” 7. “Malika-Sayyoh” 8. “Baxtiyor Sanam”(Oltin tuproq) 9. “Nazi sayyoh” 10. “Yevropa” 11. “Mohi-Sitora-Turizm” 12. “Samira Voyaj” faoliyat olib borish uchun ro`yxatga olingan bo`lib, shulardan “Arsham” va “Yevropa” firmalari joriy yilda umuman faolyat ko`rsatmagan. 2010 yilda 10 turistik firma sayyoohlarga jami 333 ming 962 so`m xizmat ko`rsatib, xizmatlar eksporti esa 170 AQSH dollarini tashkil etgan xolos[3]. Kirish va ichki turizmda faqatgina “Salom”, “Klassik-tur”, “East Line Tour”, “Baxtiyor Sanam” firmalari faoliyat ko`rsatgan.

Buxoroning juda katta turistik salohiyati bo`lsada, lekin turoperatorlar faoliyatini samarali yo`lga qo`yish va kengaytirish bo`yicha 2000 – 2010 yilgacha aniq va maqsadli chora – tadbirlar ishlab chiqilmagan edi. Vazirlar Mahkamasining 2014 yilning 13 martdagi 60-sonli qarori natijasida turistik firmalar turoperator va turagentlar faoliyatida katta o`zgarishlarga turtki bergen. Jumladan 2013 yilda 17 ta turistik firma faoliyat ko`rsatgan bo`lsa, yuqoridaq qarordan so`ng 2014 yilda turfirmalar soni ikki barobar ko`payib, 32 taga yetdi[4]. Bu esa chet ellik va mahalliy sayyoohlarga turistik xizmat ko`rsatishni yaxshilanishi va xalqaro turistik yarmarkalarda Buxoro turizmining targ`ibot tashviqotining kengayishiga ijobiy ta`sir qildi. 2015 yilda Buxoro turizmida turistik xizmatlar ko`rsatadigan turistik firmalar soni 35 taga yetib, ulardan 1 tasi qishloq joyida tashkil etilgan[5]. Amalga oshirilayotgan islohotlar va turizm sohasidagi belgilangan chora tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 2016 yil Buxoroda jami turistik firmalar soni esa 38 taga yetdi[6]. Shunday qilib, turistlarga xalqaro standartlar darajasida xizmat ko`rsatuvchi turoperatorlar, turagentlar hamda ekskursiya yetakchilari soning oshishi ular faoliyatida ijobiy o`zgarishlar yuz bergenligi bilan bog`liqdir.

Buxoro viloyatida 2013-2015 yillarda turizm sohasini yanada rivojlantirish bo`yicha viloyat dasturiga ichki turizmni rivojlantirish bo`yicha

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

alohida band kiritilgan. Shuningdek, turistlar uchun viloyat shahar va tumanlarining markaziy ko`chalaridagi kirish yo`llarida maxsus ma'lumotlar stendlari hamda diqqatga sazovor tarixiy obidalar va joylarning jadvallari, dam olish joylari haqidagi qisqacha ma'lumotlar asosiy avtomobil yo'llariga o'rnatilgan. Joriy 2013 yilda Buxoro viloyatining asosiy turistik marshrutida joylashgan "Ko'kaldosh" madrasasida xorijiy va mahalliy sayyoohlар uchun velosipedlar ijarasi yo'lga qo'yildi. "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi Buxoro mintaqaviy bo`limi tomonidan ekoturizmni yanada rivojlantirish hamda xorijiy va mahalliy sayyoohlarning tashrifi sonini kengaytirish maqsadida "Jayron" ekomarkazida xorijiy va mahalliy sayyoohlarning maroqli dam olishlari uchun kichik mehmonxona va maishiy xizmat ko`rsatish shaxobchasi tashkil etilgan. Bundan tashqari, viloyatda agroturizmni rivojlantirish maqsadida shahar atrofidagi ipakchilik, uzumchilik, paxtachilik va bog`dorchilik bo`yicha ixtisoslashgan fermer xo`jaliklarini tanlanib, turistik mavsum davrida turistlarni ish jarayoni bilan tanishtirish, shuningdek, "Camel safari" tuyalarda sayr qilish kabi turizmning yangi yo`nalishlarini ochish va rivojlantirish yo`lida keng ko`lamli ishlar amalga oshirildi. Mahalliy sayyoohlarni joylashtirish maqsadida Kogon tumanidagi "Bahouddin Naqshband" ziyoratgohi janubiy qismida 60 o`rinli mehmonxonasi foydalanishga topshirildi. Shuningdek, Qorako`l va Romitan hamda G`ijduvon tumanlarida motel va kempinglar qurilib, ishga topshirildi. Bundan tashqari, yo`l yoqasida joylashgan kompleksli obyektlarni qurish maqsadida mehmonxona va shunga o`xhash joylashtirish obyektlari hamda sog`lomlashtirish markazlarida turizm sohasida faoliyat yurituvchi subyektlar ishtirokida taqdimotlar uyuştirildi. Buxoro shahrida 2013 yilning 27-30 iyun kunlari "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tashabbusi bilan xalqaro oshpazlar uyushmasi va Germaniya oshpazlar uyushmasi a`zosi Dirk Xal`bfell boshchiligida "Grand Buxoro" mehmonxonasida "Mehmonxona va restoran dunyosi: "Jahon oshxonasi san'atining yangi tendensiyasi" mavzuidagi seminar hamda amaliy o`quv kursida shahardagi mehmonxona va restoranlarning oshpazlari ishtiroki ta`minlangan[7]. Bunday xalqaro tadbirlar chet ellik sayyoohlар uchun xalqaro andozalardagi xizmat ko`rsatish sifatini yaxshilashga xizmat qilgan. Buxoro turizmida xizmat ko`rsatish sohasida yangicha mahsulotlarni yaratish va sayyoohlар bo`sh vaqtlarini mazmunli

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

o`tkazish uchun nafaqat turistik tashkilotlar balki Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamg`armasi Buxoro viloyat boshqarmasi (Buxoro viloyat hokimining 1996 yil 22 noyabrdagi 223-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan) ham ishtiroki ijobiy ahamiyat kasb etgan. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabrdagi 222-sonli qarori hamda Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamg`armasining 2011 yil 30 maydagi 9-sonli buyrug`ini ijro etish uchun 2013 yildan “Ko`kaldosh” madrasasi hududida xorijiy va mahalliy sayyoohlarga mo`ljallab musiqiy merosimizni targ`ib qilish maqsadida milliy udumlar, an'analar, marosimlar, sharqona urf-odatlar, hamda doimiy ravishda xayriya kontsertlari, ijodiy uchrashuvlar, shuningdek targ`ibot videoroliklarini namoyish etuvchi dastur yo`lga qo`yilgan. 2011 – 2013 yildan “Ko`kaldosh” madrasasining hujralarida hunarmandlar nomoddiy madaniy merosni qayta tiklab, milliy hunarmandchilik namunalarini Buxoroga kelayotgan mahalliy va xorijiy sayyoohlarga taqdim etish uchun xizmat qilmoqdalar. Jumladan, 2013 yilda esa milliy uslubdagi “Golden Heritage” (Oltin meros) choyxonasi tashkil etildi[8]. Jumladan Buxoro viloyatida 2013 yilda xorijiy sayyoohlarga ovqatlanish bilai birga milliy an'analarimiz va kiyimlarimizni ko`rsatuvchi kontsert dasturlarini tashkillashtiruvchi 2 ga restoran (G`ulomjon karvonsaroyida "Adras" va Ko`kaldosh madrasasida "Ko`kaldosh") o'z faoliyatini boshladi[9]. Holbuki, 2013 yilga qadar bunday servis xizmatini ko`rsatuvchi restoran faqatgina 1 ta bo`lganligini inobatga olsak, viloyat turizmida servis xizmati rivojlanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu yaratilgan dastur va loyihalar Buxoroning asosiy turizm marshrutlariga kiritilib, turistik tashkilotlar bilan hamkorlik doimiy yo`lga qo`yilishi bilan hudud turizmining jozibadorligi yanada oshdi. 2014 yilda Buxoroga tashrif buyurayotgan sayyoohlarning vaqtlarini maroqli o'tishini ta'minlash maqsadida “O`zbekturizm” milliy kompaniyasi Buxoro mintaqaviy bo`limining bevosita ko`magida Buxoro shahrida kichik "Atlantik pool" akvaparki hamda “Grand Booting” bouling zallari tashkil etilib foydalanishga topshirildi[10].

2016 yilda chet ellik va mahalliy sayyoohlarga xizmat ko`rsatish uchun Toqi Zargaron, Haqiqat ko`chasi, Toqi Telpakfurushon, No`g`ay karvonsaroyi va Nodir Devonbegi madrasasida hunarmand usta tadbirkorlarning milliy hunarmandchilikning barcha turlari bo`yicha 38 ta suvenir do`konlari xizmat ko`rsatgan[11]. 2015 – 2016 yillarda Buxoro turizmi xizmat ko`rsatish

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

sohasining madaniy yo`nalishi bo`yicha ishlar kengayib, bu borada “Akademik va xalq badiiy jamoalari” Buxoro viloyat bo`limi milliy musiqiy merosimiz va san`atimizni nufuzli delegatsiyalar va sayyoohlarga namoyish etish orqali ularning mazmunli dam olishi hamda jahon miqyosida targ`ib etishda faol ishtirok etmoqda. Ushbu jamoa Nodir Devonbegi madrasasida madaniy xizmat konsertlarni tashkil etib, bu borada 2016 yil 5 yanvar holatida Buxorodagi 15 ta turistik firmalar bilan sayyoohlarga madaniy xizmat ko`rsatish bo`yicha o`zaro shartnomalar asosida xizmat ko`rsatgan[12]. Madaniy tadbirlar, milliy kiyimlar va buyumlar namoyishi va boshqa bir qator shoularning doimiy amalga oshirilishi mehmonlar va turistlarning maroqli dam olishiga zamin yaratib, pirovard natijada xizmat ko`rsatish sohasining rivojlanishiga olib keldi. Buxoro turizmi va u bilan bog`liq xizmat ko`rsatish hamda servis sohasining rivojlanishi bilan yangi ish o`rinlari yaratish imkoniyatlari o`sib bordi. Jumladan 2016 yil yanvar-avgust oylarida mehmonxonalarda 33 ta, turistik firmalarda 4 ta, milliy hunarmandchilik sohasida 235 ta, umumiy ovqatlanish sohasida 297 ta, transport sohasida 25 ta ya`ni viloyat bo`yicha 594 ta yangi ish o`rni yaratilgan[13].

Xullas, Buxoroda turizmning rivojlanishi bu albatta zamonaviy mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalarining ko`payishi, ulardagi xizmat ko`rsatish hamda servis xizmatlarining xalqaro standartlar darajasida taqdim etilishiga bog`liq bo`lib, jumladan sohaning taraqqiy etishi bilan shahar, tuman, qishloqlardagi ko`chalar va yo`l bo`yi infratuzilma obyektlarini rivojlantirishni zaruriyatga aylantiradi. Turizm ta`sirida shahardagi communal xizmat, suv, gaz, elektr energiyasi, bank xizmatlari va boshqa tegishli sohalardagi kamchiliklar viloyat yig`ilish bayonnomalari va har yillik viloyatda turizmni rivojlanish dasturlariga kiritilib, ijro uchun jamoatchilik va “O`zbekturizm” MK ning Buxoro mintaqaviy bo`limi nazorati o`rnatalishi muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Mustaqillikgacha bo`lgan davrda Buxoroda atigi 3 ta mehmonxona bo`lsa, 2016 yilga kelib ularning soni 100 taga yaqinlashdi. Lekin bu natija hali ham past ko`rsatkich edi, chunki turistik mavsum davrida mehmonxonalarda joy yetishmovchiligi muammosi hali ham dolzarbligicha qolayotgan edi. Mehmonxona, turistik firmalar faoliyati va xizmat ko`rsatish sohasidagi o`zgarishlar Buxoro viloyatidagi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda sohaning ta`sirchanligini oshirdi.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

Chunki turizmdan olinayotgan daromad shahar va viloyatda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qildi. Bu esa sayyohlarga xizmat ko`rsatish bilan bog`liq tarmoqlarda yangi ish o`rinlarini ochishga ham xizmat qildi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. <https://lex.uz/docs/-4428097>
 2. Buxoro viloyat davlat arxivi (BVDA), M-1503-fond, 1-ro`yxat, 2-ish, 1-varaq.
 3. BVDA, M-1503-fond, 1-ro`yxat, 28-ish, 476-504-varaqlar.
 4. BVDA, M-1503-fond, 1-ro`yxat, 27-ish, 346-varaq.
 5. BVDA, M-1503-fond, 1-ro`yxat, 29-ish, 112-varaq.
 6. BVDA, M-1503-fond, 1-ro`yxat, 42-ish, 225-varaq.
 7. BVDA, M-1503-fond, 1-ro`yxat, 7-ish, 18-varaq.
 8. BVDA, M-1503-fond, 1-ro`yxat, 26-ish, 361-362-varaqlar.
 9. BVDA, M-1503-fond, 1-ro`yxat, 20-ish, 124-varaq.
 10. BVDA, M-1503-fond, 1-ro`yxat, 27-ish, 394-varaq.
 11. BVDA, M-1503-fond, 1-ro`yxat, 38-ish, 347-349-varaqlar.
 12. BVDA, M-1503-fond, 1-ro`yxat, 39-ish, 605-607-varaqlar.
 13. BVDA, M-1503-fond, 1-ro`yxat, 44-ish, 138-varaq.
 14. Мурадов, Х. (2023). ОБЗОР ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/8).
- <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N05>
15. Murodov Halim Salimovich. (2023). BUXORO TURIZMI VA MILLIY HUNARMANDCHILIK. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(12), 93–96. Retrieved from <https://jets.innovascience.uz/index.php/jets/article/view/149>
 16. Salimovich , M. H. . (2024). The Role of the Cultural Sector in the Development of Bukhara Tourism. *Miasto Przyszlosci*, 45, 729–735. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2725>

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

17. Halim, M. (2024). MUSTAQILLIK ARAFASIDA O 'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJLANISHI VA MUAMMOLARI. *XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI*, 1(1), 19-23.

18. Muradov Halim Salimovich,(2024). The Role of Bukhara in Tourism Relations of Uzbekistan with Europe. “Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education” jurnali

<https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/2752/3111>